



RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHIDA AHOLINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGINI TA'MINLASH

Abrorova Ra'no

Toshkent shahar 16-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ORCID: 0009-0000-2195-168X
abrorovarano71@gmail.com

Tolibjonova Ra'no

Toshkent shahar 40-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ORCID: 0009-0009-9706-1881
ranotolibjonova69@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda aholining moliyaviy savodxonlik darajasining o'rni va ahamiyati, xorijiy va mahalliy olimlarning bu boradagi fikr va mulohazalari, moliyaviy savodxonlikni oshirish yo'nalishlari, moliyaviy xizmatlar hajmining ortishi natijasida iqtisodiyot tarmoqlarining yanada rivojlantirish maslalari tahlil qilindi. Ilmiy izlanishlar natijasida tegishli tartibda xulosa va takliflar keltirib o'tildi.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, moliyaviy mablag'lar, moliyaviy savodxonlik, oliyaviy xizmatlar, bank, iqtisodiyot, risk, barqarorlik.

ОБЕСПЕЧЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ В РАЗВИТИИ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ

Абророва Раъно

Средней общеобразовательной
школы № 16 города Ташкента

Талибжоновна Раъно

Средней общеобразовательной
школы № 40 города Ташкента

Аннотация. В статье проанализированы роль и значение уровня финансовой грамотности населения в развитии цифровой экономики, мнения и мнения зарубежных и отечественных ученых по этому вопросу, направления повышения финансовой грамотности, вопросы дальнейшего развития отраслей экономики в результате увеличения объема финансовых услуг. В результате научных исследований в соответствующем порядке были сделаны выводы и предложения.

Ключевые слова: цифровая экономика, финансы, Финансовая грамотность, высшие услуги, банковское дело, экономика, риск, устойчивость.

ENSURING FINANCIAL LITERACY OF THE POPULATION IN THE DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY

Abrorova Ra'no

General Secondary Education School No 16 of Tashkent City

Tolibjonova Ra'no

General Secondary Education School No 40 of Tashkent City

Annotation. *The article analyzed the role and importance of the level of financial literacy of the population in the development of the digital economy, the opinions and opinions of foreign and domestic scientists in this regard, the directions of increasing financial literacy, the problems of further development of economic sectors as a result of an increase in the volume of financial services. As a result of scientific research, conclusions and suggestions were drawn in the appropriate order.*

Keywords: *digital economy, financial resources, financial literacy, tertiary services, banking, economics, risk, sustainability.*

Kirish.

Rivojlangan mamlakatlarda aholining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishning nazariy jihatlarini takomillashtirish va milliy davlat dasturlari samaradorligini oshirish borasidagi ilmiy izlanishlarga ustuvorlik berilgan holda, bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan mamlakatlarda aholining moliyaviy savodxonligi darajasini oshirish bo'yicha davlatning maqsadli dasturlarini ishlab chiqish, ularni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish, moliyaviy savodxonlik dasturlarini bozor iqtisodiyoti komponentlari bilan boyitish, aholining moliyaviy savodxonligi darajasini oshirishda moliyaviy tashkilotlar, jumladan, tijorat banklarining mavqeini mustahkamlashga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar yanada faollashmoqda. O'zbekistonda mustaqillik yillarida bozor iqtisodiyoti talablari asosida moliya tizimi shakllandi va muntazam takomillashib bormoqda.

Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida moliya bozorining amal qilishi, aholiga ko'rsatiladigan moliyaviy xizmatlar va ishlab chiqarilayotgan moliyaviy mahsulotlarning sifatini takomillashtirishda aholining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan chuqur ilmiy tadqiqotlarni olib borish mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish va uning raqobatbardoshligi darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi (Vaxabov, 2022).

Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish zaruriyati 2008-yilda sodir bo'lgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining sabablari va uning salbiy oqibatlarida yaqqol namoyon bo'ldi. Jumladan, aksariyat rivojlangan mamlakatlarda tashqi qarzning ortishi, ortiqcha riskni o'z zimmasiga olish va riskni boshqarishdagi nuqsonlar, moliya sektorida moliyaviy aktivlar, real aktivlar bahosining xolisona shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bular quyidagilarda namoyon bo'ldi (Jumayev, 2009):

– qator rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy innovatsiyalarning barqaror sur'atlarda rivojlanishi, moliyaviy mahsulotlar hajmining ortishi va qulay shartlarda ichki hamda tashqi moliyalash manbalari orqali iste'mol maqsadlaridagi qarzdorlikning ortishiga olib keldi;

– rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy sektorning yetarli darajada rivojlanmagani ortiqcha jamg'armalarning rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotidagi defitsitini moliyalashtirishga yo'naltirilishiga sabab bo'ldi;

– xalqaro valyuta tizimidagi asimmetriya.

Yuqoridagilarga asoslangan holda moliyaviy-iqtisodiy munosabatlarning barqaror rivojlanishida aholining moliyaviy savodxonligini oshirish dolzarb global muammoga aylanmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Druker (1993) Shaxsning iqtisodiy-moliyaviy savodxonligi darajasi uning bozordagi tovar va xizmatlar bilan pulga nisbatan munosabatini belgilaydi. Moliyaviy savodxonlik iqtisodiy savodxonlik bilan bog'liq tushuncha bo'lib, insonning hayotiy faoliyati jarayonida shakllanadi va rivojlanadi.

Kiyosaki (2011) Moliyaviy savodxonlik iqtisodiy-moliyaviy bilimlarning samarasi bo'lib, dastlab pul topish, jamg'arish, ongli ravishda jamg'armani yuqori samaradorlikka ega investitsiyaga yo'naltirishi, daromadini oshirishi va o'z hayotining yaxshilashi bilan izohlanadi. Insonning moliyaviy savodxonligi pul mablag'larini ishlab topish, jamg'arish, uni ko'paytirish maqsadida samarali investitsiya qarorlarini qabul qilish bilan bog'liq.

Moliyaviy savodxonlik muammosi xorijiy iqtisodiy adabiyotda XX asrning 80-yillaridan boshlab turli yo'nalishlar bo'yicha chuqur o'rganilgan. Jumladan, Alsemxeest (2015) tadqiqotlarida moliyaviy ta'limni qo'llab-quvvatlash yoki unga qarshi fikrlarning nazariy asoslari o'rganilgan bo'lsa; Xira (2012) tadqiqotlari moliyaviy xulq masalalariga bag'ishlangan.

Bauman va Xoll (2012) tadqiqotlarida moliyaviy ta'lim zamonaviy ta'limning bazaviy fanlaridan biri sifatida qayd etilgan bo'lsa, Vest (2012) tadqiqotlarida moliyaviy ta'limning iste'molchilarning individual ehtiyojlarini qondirishdagi foydali jihatlari tadqiq etilgan.

Vaxabov va Dusmuhamedovlar (2022) moliyaviy savodxonlik tushunchasiga bildirilgan nazariy qarashlarning mazmuni turlicha bo'lsada, ularning yagona g'oyasi – bu inson moliyaviy mustaqilligini va farovonligining asosiy sharti bu uning moliyaviy savodxonligi bilan bog'liqligini ta'kidlashgan.

Shadmanov (2020) moliyaviy fikrlash – bu mablag'larni investitsiyalash bo'yicha qarorlarni baholash malakasi va xatti-harakatlaridir. Moliyaviy fikrlashining rivojlanishi iqtisodiy farovonlikni ta'minlashda aholining moliyaviy holati va tarkibiy tuzilishining ijobiy o'zgarishi bayon etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, induksiya va deduksiya, ma'lumotlarning qiyosiy va tanlab tadqiq etish, analiz va sintez, statistik tahlil va guruhlash usullari, keltirilgan ma'lumotlarni analitik tahlil usulidan foydalanilgan holda kengroq qilib yoritib berilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Iste'molchilarning moliyaviy savodxonligini oshirish muammolari iqtisodiy adabiyotda chuqur tahlil etilayotganligiga qaramasdan “moliyaviy savodxonlik” tushunchasining umumqabul qilingan yaxlit ilmiy ta'rifi mavjud emas. Shu sababli aholining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish muammolarini o'rganishni ushbu tushunchaga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar sharhidan boshlash maqsadga muvofiq. Dastlab, “moliyaviy savodxonlik” tushunchasining o'zagini tashkil etuvchi “savodxonlik” so'zining ma'nosini aniqlab olish zarur. Uzoq davr mobaynida “savodxonlik” tushunchasi tilshunoslik sohasiga oid ona tilida o'qish, yozish ma'nosidagi tushuncha sifatida iste'molda bo'lgan (Moiseyeva, 2017). YuNESKO ta'rifiga ko'ra, agar inson “yozishni bilsa, o'qiganlarini tushunsa, jamiyat hayotiga tegishli oddiy, qisqa ma'lumotlarni yozib bera olsa”, savodxon hisoblanadi.

Moliyaviy munosabatlar zamonaviy inson hayotining barcha sohalariga ta'sir qiladi. Moliyaviy savodxonlik insonga o'zining moliyaviy farovonligini boshqarish imkonini beradi. Elementar moliyaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmaslik insonlarning moliyaviy farovonligini ta'minlashda to'g'ri qarorlar qabul qilish qobiliyatini cheklaydi.

Mikro miqyosida aholining moliyaviy savodxonligi darajasining pastligi, iqtisodiy oqibatlari va xavf-xatarlari, moliyaviy suiste'molliklar sonining ko'payishi, aholi tomonidan kredit qarzdorlik darajasining ortishi va shaxsiy jamg'armalarning samarasiz taqsimlanishida namoyon bo'ladi. Makroiqtisodiy darajada moliyaviy savodxonlikning quyi darajasi moliya bozorlarining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Jumladan, moliya institutlari va ularni tartibga solish bo'yicha davlat siyosatiga bo'lgan ishonchni pasaytiradi, barcha darajadagi byudjetlarga qo'shimcha bosimlarni keltirib chiqaradi va iqtisodiy o'sishning pasayishiga olib keladi. Fuqarolarning moliya bozorlaridagi bilimlari va ishonchning yo'qligi, shartnoma munosabatlari va moliyaning bazaviy asoslarini bilmaslik tadbirkorlik va kichik biznesning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi: odamlar qanday qilib biznes boshlashni, biznes loyihasini tashkil qilishni bilmaydilar.

Fikrimizcha, aholining moliyaviy savodxonligi darajasini to'g'ri va aniq tahlil qilish uchun uning ko'lamidan kelib chiqqan holda tadqiqotlarni amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Tahlillar ko'rsatishicha, moliyaviy savodxonlik ko'lamini individual, xonadon xo'jaligi, hudud, biznes, ma'lum bir iqtisodiyot tarmog'i bo'yicha, yaxlit davlat bo'yicha guruhlariga ajratish va moliyaviy savodxonlikning tarkibiy qismlarini o'rganish maqsadga muvofiq.



1-rasm. Moliyaviy savodxonlikning tarkibiy qismlari

Manba: ilmiy izlanishlar natijasida muallif tomonidan shakllantirildi.

Moliyaviy savodxonlikka bo'lgan ehtiyoj doimo dolzarb bo'lib jahon iqtisodiyotidagi globallashuv jarayonlari moliyaviy ta'lim mavqeining yanada ortishiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Birinchidan, moliya bozorlarining globallashuvi natijasida moliyaviy mahsulot turlari keskin ko'paydi. Bu esa o'z navbatida ularni tanlashda muayyan moliyaviy bilimlarni talab etadi.

Ikkinchidan, qayd etilgan pensiya to'lovlari miqdorining qisqarishi va shaxsiy pensiya jamg'armalari mohiyatining kuchayishi bilan birgalikda, moliyaviy xavfsizlik yuki ish beruvchidan ishchilar zimmasiga o'ta boshladi.

Moliyaviy ta'lim aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, moliyaviy xulqini takomillashtirish va moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ksia va Nil (2016) tadqiqotlarida iste'molchilarning moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishning quyidagi to'rt jihatlarini tahlil etiladi va ular natijaviy indeks orqali umumlashtirilgan:

- obyektiv moliyaviy savodxonlik;
- subyektiv moliyaviy savodxonlik;
- maqbul moliyaviy xulq;
- moliyaviy imkoniyatlar.

Indeks alohida ko'rsatkichlar bilan bog'liq ballarni yig'ish yo'li bilan hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichni hisoblashda moliyaviy ta'lim va moliyaviy imkoniyatlarga taalluqli ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqliklarga alohida e'tibor qaratiladi.

Mamlakatimizda moliyaviy xizmat ko'rsatadigan tashkilotlar va hattoki firmalar soni oshib bormoqda. Natijada aholiga ko'rsatiladigan moliyaviy xizmatlar darajasini ham dinamik tarzda o'sishini kuzatish mumkin (1-jadval). Ba'zi hollarda moliyaviy bilimlarning yetishmasligi natijasida aholining iqtisodiy qiyinchiliklarga duch kelishi natijada turmush dajasining sustlashuvi kuzatilmoqda. Shuning uchun ham moliyaviy savodxonlik darajasini mustahkamlash maktab chog'idan boshlang'ich bilimlarni shakllantirish bilan amalga oshirilishi lozim.

1-jadval

Moliyaviy xizmatlarining o'sish sur'atlari (oylik)


Klassifikator	2024-M01	2024-M02	2024-M03	2024-M04	2024-M05	2024-M06	2024-M07	2024-M08	2024-M09
O'zbekiston Respublikasi	127,1	127,6	125,2	118,2	118,9	120	120,3	120,7	120,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	122,7	122,1	121,7	116,6	117,2	118,4	116,7	115,5	112,9
Andijon viloyati	107	109,5	113,2	110,6	115,1	120	122,1	119,9	115,3
Buxoro viloyati	106,7	109,2	112	101,7	102,4	103,2	103,3	104,3	109,2
Jizzax viloyati	110,1	109,8	106,5	91,8	97,7	100,7	101,4	103	101,5
Qashqadaryo viloyati	130,7	127,4	128	123,5	124,4	124,7	122,9	122,8	114,7
Navoiy viloyati	109,7	122,7	129,9	122,7	124,4	126,7	126,2	126	118,3
Namangan viloyati	90,2	81,9	90,5	87,8	91,7	98,1	99,6	100,4	101,7
Samarqand viloyati	116,8	116,1	115,9	112	112,3	112,6	112,3	111,7	115,9
Surxondaryo viloyati	95,6	101,3	105,6	103,5	106,1	107,5	106,9	105,9	106,3
Sirdaryo viloyati	118,1	112,1	118,6	103,4	106,7	110,5	111,7	111,7	107,4
Toshkent viloyati	112,4	113	112,5	102,5	104,3	105,8	105,3	105,8	105,3
Farg'ona viloyati	116,2	127,6	123	117,6	118,4	118,3	118,1	116,5	116,3
Xorazm viloyati	128,2	138,9	141,6	137,7	138	138,3	135,9	134,8	117,4
Toshkent shahri	140,9	139,3	132,8	125,1	124,5	124,7	125,4	126,3	127,4

Manba: <https://siat.stat.uz/reports-filed/3222/table-data>.

Birgina 2024-yil uchun ko'rsatilgan moliyaviy xizmatlar darajasiga e'tibor beradigan bo'lsak, sentabr oyi uchun o'shish 20,3 %ni tashkil qilmoqda. Shu bilan birga raqamli texnologiyalarni iqtisodiyotda keng joriy etish, aholining qo'l telefonlari va kompyuterlarining Internet tarmog'i bilan ta'minlanganlik darajasining oshishi ham moliyaviy aktivlarning faol foydalanilishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa moliyaviy bilimlarni talab etadi.

Banklar tomonidan yaratilgan mobil va kompyuter ilovalari, PayMe, Click va boshqa dasturlardan foydalanish uchun moliyaviy bilimlarni shakllantirish va mablag'lardan to'g'ri va samarali foydalanish zaruratini yaratmoqda. Moliyaviy mablag'lardan to'g'ri foydalanish raqamli muhitda xavfsizlik muammolarini ham keltirib chiqaradi, shuning uchun mamlakatimiz aholisini moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish masalasi har doim dolzarb bo'lib qoladi.


Raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida moliyaviy savodxonlikni ta'minlash, avvalam bor Internet bilan qamrovni kengaytirish va undan to'g'ri foydalanish masalalarini hal qilish lozim. 2023-yil ma'lumotlariga ko'ra mamlakatimizda internet tarmog'iga ulangan abonentlar soni 27 087,3 ming kishini tashkil etmoqda (2-rasm).



2-rasm. Internet tarmog'iga mobil aloqa orqali ulangan abonentlar soni

Manba: <https://siat.stat.uz/reports-filed/3179/line-data>

Tadqiqotlarimiz natijasida aytishimiz mumkinki 2025-yilga kelib, Internet tarmog'iga mobil aloqa orqali ulangan abonentlar soni 32248,56 ming kishini tashkil etishi kutilyapti. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish orqali aholining moliyaviy munosabatlarga kirishish jarayonini mustahkamlaydi.



3-rasm. Elektron tijoratda savdo hajmi (yillik)

Manba: <https://siat.stat.uz/reports-filed/2833/line-data>

Elektron tijoratda savdo qilish hajmining ham ortib borishi aholining moliyaviy savodxonlik darajasini, qay darajada ekanligini ko'rsatib beradi va uni indikator sifatida o'rganish ham mumkin. Elektron tijoratda savdo hajmi 2023-yilda 13 263,8 mlrd. so'mni tashkil qilgan, iqtisodiy faol aholi jon boshiga nisbatan hisoblaganda bu ko'rsatkich 947,4 ming so'mni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich kam albatta lekin moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish elektron pullar aylanmasini yanada oshiradi. Demak aholida moliyaviy savodxonlikni oshirish muammosi aktual hisoblanadi.

Mamlakatimizda iqtisodiy fanlarni o'qitish yangi bosqichga ko'tarilayapti. Sifatli ta'lim berish imkoniyatlarini oshirish, maktab o'quvchilarida moliyaviy va tadbirkorlikka oid bilim

ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda.

2023-yilda mamlakat miqyosida 210 ta oliygoh, 330 ta kasb maktabi, qariyb 400 ga yaqin kollej va texnikum hamda 10 mingdan ziyod umumiy o'rta ta'lim maktablari faoliyat yuritadi. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF5712-sonli "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" (Farmon, 2019) gi Farmonida "Inson kapitalining mehnat bozori va mamlakatda o'quvchilarning raqobatbardoshlik darajasini belgilovchi asosiy omil sifatida rivojlantirish" chora-tadbirlarida muhim vazifalar belgilab berildi.

Bu esa o'quvchilarning moliyaviy bilim saviyasini oshirish, moliyaviy munosabatlarga kirishish ko'nikmalarini samarali rivojlantirishni taqazo etadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari "Iqtisodiy bilim asoslari" va "Tadbirkorlik asoslari" fanlarini o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarda moliyaviy savodxonlikni va iqtisodiy madaniyatni shakllantirish, ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan muayyan hayotiy vaziyatlarda eng maqbul yechim topa olish va to'g'ri qaror qabul qilishga hamda o'quvchilarga tadbirkorlik faoliyati va tushunchasining shakllanishi, evolutsiyasi, mohiyati va mazmunini, tadbirkorlikni tashkil etish, amalga oshirish, rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash to'g'risida bilim berishdan iborat (Jabborov, 2023).

O'quvchilarning moliyaviy munosabatlarga kirishish ko'nikmalarini rivojlantirishda integratsiya, mehnat munosabati bilan bog'liqlik, tarbiyaviy omillar birligi, jamiyatning ijtimoiy- iqtisodiy ehtiyojiga moslik, shaxsning ehtiyoj va imkoniyatlari birligi individual xususiyatlarini inobatga olish, tabaqaviy yondashish, jamoa imkoniyatining ustuvorligi, o'yin xarakteriga egalik kabi tamoyillar alohida o'rin tutadi.

Xulosa va takliflar.

O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha tavsiyalar:

- katta yoshdagi aholining bazaviy moliyaviy bilimlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish maqsadga muvofiq. Asosiy moliyaviy tushunchalar mohiyatini chuqur tushunish iste'molchilarning moliyaviy xulqining yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

- moliyaviy bilimlar o'z mablag'laridan oqilona foydalanish va shaxsiy moliyaviy maqsadlarga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy ta'lim dasturlarini amalga oshirishda ustun darajada moliyaviy ko'nikmalarni shakllantirishning amaliy yechimiga e'tibor qaratish zarur;

- moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishda rasmiy moliyaviy sektor ulushining oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Moliyaviy ta'lim dasturlari yordamida banklar va bank tizimi faoliyati, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, moliyaviy munosabatlarni tartibga soluvchi davlat organlari faoliyati to'g'risida ko'proq ma'lumotlar yetkazish zarur;

- maktab o'quvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari o'quv rejasiga moliyaviy savodxonlik fanini kiritish;

- maktab o'quvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari talabalari va o'quvchilarning moliyaviy savodxonligi darajasini oshirish, jumladan, yoshlarga tayanch moliyaviy bilimdonlik asoslari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish imkonini beruvchi elektron darslik, videodars, mobil ilova yaratish;

- aholi va tadbirkorlarning moliya yo'nalishida bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish, ilmiy-ommabop maqola va kitoblar tayyorlash, chop etish, tijorat banklarida bosqichma-bosqich islom tamoyillari asosida bank mahsulotlarini ishlab chiqish va xizmat ko'rsatish, OAVlarida shu mavzuda maxsus eshittirish va ko'rsatuvlarni tashkil qilish.

- ommaviy axborot vositalari orqali aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga yo'naltirilgan ko'rsatuvlarni, tele va radio viktorinalarni muntazam aholiga taqdim etib borish.

Adabiyotlar/ Literatura/ Reference:

Baumann C., and Hall T. (2012) *Getting Cinderella to the ball: putting education at the heart of financial education. International Journal of Consumer Studies*, 36(5), 2012. – PP. 508-514.

Drucker P.F. (1993) *Post – Capitalist Society*. – Oxford Butterworth: Heinemann, 1993. – P. 271;

Farmon (2019). *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5712-son farmoni*

Hira, T. K. (2012) *Promoting sustainable financial behaviour: Implications for education and research. International Journal of Consumer Studies*, 36(5), 2012. – PP. 502-507.

Jabborov J.R. (2023) *Iqtisodiy fanlarni o‘qitish sifatini oshirish yo‘llari // sai. 2023. № Special Issue 7. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/iqtisodiy-fanlarni-o-qitish-sifatini-oshirish-yo-llari>.*

West J. (2012) *Financial literacy education and behaviour unhinged: combating bias and poor product design. International Journal of Consumer Studies*, 36(5), 2012. – PP. 523-530.

Xiao, J. J., & O’Neill, B. (2016) *Consumer financial education and financial capability. International Journal of Consumer Studies* 40(6), 2016. URL: https://www.researchgate.net/publication/301487659_Consumer_Financial_Education_and_Financial_Capability

Alsemgeest, L. (2015) *Arguments for and against financial literacy education: where to go from here? International Journal of Consumer Studies*, 39(2), 2015. – PP. 155-161.

Вахабов Абдурахим Васикович, Дусмухамедов Ойбек Сураббекович (2022) *Молиявий саводхонлик тушунчасининг назарий асосларини такомиллаштириш // Экономика и финансы (Узбекистан). 2022. №5 (153). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/moliyaviy-savodhonlik-tushunchasining-nazariy-asoslarini-takomillashtirish>.*

Жумаев Н.Х., Вахабов А.В., Хошимов Э.А. (2009) *Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози: сабаблари, хусусиятлари ва иқтисодиётга таъсирини юмшатиш йўллари. Монография. – Т.: «Akademnashr», 2009. – Б. 6-7.*

Кийосаки Р.Т. (2011) *Богатый папа, бедный папа / Р.Т.Кийосаки. – «Попурри», 2011. – С. 33;*

Мусеева, Д.В. (2017) *Финансовая грамотность населения российского региона: экономикосоциологический анализ: дис. канд. социол. наук. Волгоград, 2017. URL: <http://www.volsu.ru/upload/iblock/022/>.*

Шадманов Э., Хасанханова Н. (2020) *Теоретические основы экономического мышления. Монография. – М.: «Lap Lambert Academic Publishing RU», 2020. – С. 64.*